

RESEARCH ARTICLE

Labor Market In The Era Of Artificial Intelligence And Automation: A Comparative Analysis Of Global Trends And The Experience Of Uzbekistan

Tursunkulov Abbas Asrorovich

Lieutenant Colonel, Institute of Ground Forces, University of Public Security and Defense of the Republic of Uzbekistan

Senior Lecturer, Department of Combat Support

Email: abbostursindinov@gmail.com

Ergashev Ilyos Ibragimovich

Lieutenant Colonel, Institute of Ground Forces, University of Public Security and Defense of the Republic of Uzbekistan

Senior Lecturer, Department of Combat Support

Abstract

The rapid development of Artificial Intelligence (AI) and automation technologies is fundamentally transforming global labor markets. Although the dual impact of these technologies – the reduction of traditional jobs and the increasing demand for highly skilled professions – has been widely studied globally, research comparing the economy of Central Asia, particularly Uzbekistan, with global trends is still insufficient. To fill this gap, this article conducts a comparative analysis between global AI trends and the labor market of Uzbekistan. The research utilizes methods of deduction and cause-and-effect analysis, employing international reports such as the WEF's "Future of Jobs Report 2025", the International Labour Organization's (ILO) "AI Adoption and Its Impact on Jobs (2025)", and the UN and ILO's "Mind the AI Divide (2024)", as well as empirical literature related to Uzbekistan, as secondary sources. The results of the analysis indicate that three global trends – the contraction of middle – skill jobs, the growing demand for highly skilled specialists, and the exacerbation of the digital divide – are also being confirmed in the labor market of Uzbekistan. While plans to cut 2,141 administrative positions in the public sector reflect the global digitalization pattern, the growing demand for AI and cloud computing specialists aligns with WEF projections. However, the "Robot Productivity Paradox" identified by Flores (2022) has not yet been confirmed in the case of Uzbekistan, which remains an important area for future research. The article concludes with practical recommendations for the state, the education system, and the private sector, aimed at ensuring inclusive adaptation to technological changes – that is, adaptation that encompasses all strata of society.

Keywords: artificial intelligence, automation, labor market, comparative analysis, digitalization, Uzbekistan, digital divide.

Annotatsiya

Sun'iy intellekt (SI) va avtomatlashtirish texnologiyalarining keskin rivojlanishi global mehnat bozorlarini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu texnologiyalarning ikki tomonlama ta'siri – an'anaviy ish o'rinlarini qisqartirish va yuqori malakali kasblarga talab kuchaytirish - global miqyosda keng o'rganilgan bo'lsa-da, O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston iqtisodiyotini global tendentsiyalar bilan taqqoslaydigan tadqiqotlar hali yetarli emas. Mazkur maqola ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida global SI tendentsiyalari va O'zbekiston mehnat bozori o'rtasida taqqoslama tahlil o'tkazadi. Tadqiqotda deduksiya va sabab-oqibat tahlili metodlaridan foydalanilgan bo'lib, WEF ning Future of Jobs Report 2025, Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT)ning "AI Adoption and Its Impact on Jobs (2025)" va BMT va XMT ning "Mind the AI Divide (2024)" kabi xalqaro hisobotlar hamda O'zbekistonga oid empirik adabiyotlar ikkilamchi manba sifatida qo'llanilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'rta malakali ish o'rinlarining qisqarishi, yuqori malakali mutaxassislariga talabning o'sishi va raqamli tengsizlikning kuchayishi kabi uchta global tendentsiya O'zbekiston mehnat bozorida ham o'z tasdig'ini topmoqda. Davlat sektorida 2141 ta ma'muriy lavozimni qisqartirish rejalari global raqamlashtirish namunasini aks ettirsa, AI va bulutli hisoblash mutaxassislariga bo'lgan talab o'sishi WEF prognozlari bilan mos tushadi. Biroq Flores (2022) tomonidan aniqlangan "Robotlar samaradorligi paradoksi" O'zbekiston holatida hali tasdiqlanmagan bo'lib, bu kelajak tadqiqotlar uchun muhim soha bo'lib, qolmoqda. Maqola davlat, ta'lim tizimi va xususiy sektor uchun texnologik o'zgarishlarga inklyuziv moslashishni ya'ni jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olgan holda moslashishni ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, mehnat bozori, taqqoslama tahlil, raqamlashtirish, O'zbekiston, raqamli tengsizlik.

Kirish: Sun'iy intellekt (SI) va avtomatlashtirish texnologiyalarining jadal rivojlanishi XXI asr iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Mehnat bozori ushbu o'zgarishlarga eng sezgir bo'lgan soha sifatida diqqat markazida turibdi. Bir tomondan, avtomatlashtirish an'anaviy, takroriy ishlarni qisqartirib, ishsizlikni kuchaytirish xavfini yuzaga keltirsa, ikkinchidan, yuqori malakali ish o'rinlari va kasblarning shakllanishiga imkoniyat bermoqda. (Agama & Okoh, 2025). Ushbu ikki tomonlama ta'sir global miqyosda keng o'rganilmoqda, biroq rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O'rta Osiyo mintaqasidagi iqtisodiyotlar holatida tadqiqotlar hali yetarli emas (Millington, 2017).

O'zbekiston bu jihatdan alohida o'rganishga sazovor namuna hisoblanadi. Mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyot va davlat boshqaruvini raqamlashtirish jarayoni jadal amalga oshirilmoqda (Khaitbaeva et al., 2026). Amaliy ma'lumotlar ushbu o'zgarishlarning mehnat bozoriga allaqachon ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi: 2025 yil holatiga ko'ra, davlat sektorida raqamlashtirish orqali jarayonlarni optimallashtirish maqsadida 2141 ta ma'muriy lavozimlar qisqartirilishi rejalashtirilgan bo'lsa (Khusainov va Ibragimova, 2026), bir vaqtning o'zida IT sohasida talab keskin o'sib bormoqda. Shu bilan birga, global o'zgarishlar rivojlanayotgan mamlakatlardagi ish

o'rinlari bozoriga o'zining yangi tahdidlari bilan qattiq zarba berayotganini ko'rishimiz mumkin: malaka taqchilligi va ijtimoiy himoya tizimlarining zaifligi (Flores, 2022). O'zbekistonda esa bu masala aholimizning aksariyati yoshlardan iboratligi, qishloq va shahar sharoitlaridagi farqlar, shuningdek, iqtisodiyotimizning tez o'zgarayotgani sababli qiyinlashib bormoqda. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mehnat bozoridagi mazkur jarayonlar global tendentsiyalar bilan qiyosiy tahlil qilinmagan va yaxlit empirik asosga ega emas (Khusainov & Ibragimova, 2026). Ushbu bilim bo'shlig'ini to'ldirish maqsadida mazkur tadqiqot quyidagi savolga javob izlaydi: Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish global mehnat bozorlariga ta'sirining umumiy tendentsiyalari va O'zbekiston mehnat bozori bilan taqqoslaganda qanday farq va o'xshashliklarni namoyon etadi? Tadqiqotning maqsadi — global tendentsiyalar va O'zbekiston tajribasini taqqoslama tahlil qilish asosida mehnat bozorining kelajakdagi ko'rinishini prognozlash hamda davlat siyosati uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Adabiyotlar Tahlili: Sun'iy Intellekt va avtomatlashtirish mehnat bozorlariga ta'sirini o'rganuvchi global adabiyotlar bir qator muhim moyilliklarni ko'rsatadi. Millington (2017) texnologiyalar endilikda kasb tanlamayotganini ya'ni jismoniy va aqliy mehnatkashlarni birdek ishidan mahrum qilishi mumkinligini aytib o'tgan. Va rivojlanayotgan mamlakatlarda ish o'rinlarining 65-85 foizi avtomatlashtirish xavfiga uchraganini hisoblagan. WEF ning "Future of Jobs Report 2025" ga ko'ra, 2030-yilgacha 170 millionta yangi ish o'rni yaratilishi, 92 millionta ish o'rinlari

yo'qolishi va ko'nikmalarning 39 foizi o'zgarishini prognoz qiladi. Flores (2022) Braziliya ma'lumotlari orqali "Robotlar samaradorligi paradoksi"ni aniqlaydi. Unga ko'ra, robotlar joriy etilgandan keyin unumdorlik besh yillik kechikish bilan o'sadi. Agama va Okoh (2025) esa o'z maqolalarida avtomatlashtirishning ikki tomonlama ta'siriga e'tibor qaratadilar. Bir tomondan past malaka talab qiladigan ishlarni qisqartirsa, ikkinchi tomondan yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni ko'paytiradi. Mualliflarning ta'kidlashicha, agar ta'lim tizimida tegishli islohotlar o'tkazilmasa va raqamli infratuzilmaga yetarlicha investitsiya kiritilmasa, mazkur jarayon jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni yanada kuchaytirib yuborishi mumkin. BMT va Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Mind the AI Divide (2024)" hisoboti bu xavfni yanada tasdiqlaydi: rivojlangan mamlakatlarning 118 tasi xalqaro Sun'iy Intellekt boshqaruvi muhokamalarida umuman ishtirok etmaydi.

O'zbekiston holatida bu mavzu yetarli darajada o'rganilmagan (Khusainov va Ibragimova, 2026). Mavjud tadqiqotlar raqamlashtirish jarayonining ikki qarama-qarshi ko'rinishini qayd etadi: davlat sektorida 2141 ta ma'muriy lavozimlar qisqartirilishi rejalashtirilgan bo'lsa, IT sohasida talab keskin o'smoqda. Bu esa WEF (2025) aniqlagan global tendentsiya bilan uyg'un tushadi (Khusainov va Ibragimova, 2026). Rozimurodova va Rasulov (2025) esa shahar-qishloq raqamli tafovuti "Mind the AI Divide (2024)" ning ogohlantirishlarini mahalliy miqyosda tasdiqlaganini ko'rsatadi. Khaitbaeva va boshqalar (2026) Sun'iy Intellekt integratsiyasi O'zbekiston Yalpi Ichki Mahsulotini yiliga 7 foizga oshirishi mumkinligini ta'kidlasa-da, infratuzilma va

kadrlar tanqisligi asosiy to'siq bo'lib qalayotganini qayd etadi. Qalandarovna va Xaydarova (2026) o'zlarining amaliy tadqiqotlarida AI-HRM platformasi joriy etilishi xodimlar almashinuvini 39 foizga kamaytirganini hujjatlashtirishgan. Shunday bo'lsa-da, O'zbekiston mehnat bozorini global tendentsiyalar bilan metodologik jihatdan qat'iy asosda qiyoslaydigan tadqiqot hozircha mavjud emas – mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldiradi.

Metodologiya: Mazkur tadqiqot taqqoslama tahlil metodiga asoslanadi. Ushbu metod ikki yoki undan ortiq ob'ektni bir xil mezon asosida o'rganib, o'xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Bizning maqolamizda esa global mehnat bozori tendentsiyalari va O'zbekiston mehnat bozori o'xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi (Flores, 2022). Taqqoslama metod tanlanganligi quyidagilar bilan asoslanadi: mavjud adabiyotlarda global va O'zbekiston bo'yicha tadqiqotlar alohida-alohida olib borilgan bo'lib, ularni yaxlit qiyosiy ko'rinishda tahlil qilish tadqiqot bo'shlig'ini to'ldirish uchun zarur (Khusainov va Ibragimova, 2026). Tadqiqot ikkilamchi ma'lumotlar ya'ni olimlar tomonidan yig'ib, tayyorlab qo'yilgan ma'lumotlar asosida qurilgan. Ma'lumot manbalari uch guruhga bo'linadi. Birinchi guruh – xalqaro hisobot va statistikalar: WEF ning Future of Jobs Report 2025, BMT va Xalqaro Mehnat Tashkilotining Mind the AI Divide (2024), Millington (2017) ning K4D hisoboti, shuningdek Agama va Okoh (2025) ning tahliliy maqolasi. Ushbu manbalar global tendentsiyalar, miqdoriy prognozlar va rivojlanayotgan mamlakatlar holatini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi guruh – O'zbekistonga oid ilmiy

maqolalar: Khusainov va Ibragimova (2026), Rozimurodova va Rasulov (2025), Qalandarovna va Xaydarova (2026), Khaitbaeva va boshqalar (2026). Bu manbalar O'zbekiston mehnat bozorining joriy holati, raqamlashtirish sur'ati va ish o'rinlari tarkibidagi o'zgarishlar haqida empirik ma'lumot beradi. Manbalarning uchinchi guruhiga modellashtirish bo'yicha qilingan izlanishlar kiradi. Masalan, butun dunyo bo'yicha umumiy xulosalar qilishda Floresning (2022) ekonometrik modeli bizga nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Tahlil quyidagi ketma-ket bosqishlarda amalga oshirildi. Dastlab, global miqyosdagi asosiy tendentsiyalar va ko'rsatkichlar xalqaro manbalardan ajratib olindi va O'zbekistonga xos empirik ma'lumotlar mahalliy va ilmiy adabiyotlardan tizimli ravishda to'plandi. So'ng, ikkala guruh ma'lumotlari uchta qiyosiy me'zon: bandlik tuzilmasining o'zgarishi, malaka talablari dinamikasi va amalga oshirilgan siyosiy choralar bo'yicha taqqoslandi. So'ngra o'xshashlik va farqlar asosida xulosalar va zarur tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va Natijalar: Tadqiqotning deduktiv yondashuviga muvofiq, dastlab global darajada kuzatilgan uchta asosiy tendentsiya O'zbekistondagi mavjud holat bilan bosqichma-bosqich qiyoslanadi. Shundan so'ng, har bir tendentsiya doirasidagi sabab-oqibat aloqalari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Birinchi tendentsiya o'rta malakali ish o'rinlarining siqib chiqarilishi bo'yicha hisoblanadi. Global adabiyotlarga asoslanadigan bo'lsak, bu hodisaning mexanizmi shuni ko'rsatadiki, algoritmlashtirish mumkin bo'lgan, kunlik takrorlanadigan ishlar birinchi navbatda avtomatlashtiriladi (Millington, 2017). Jahon Iqtisodiyot Forumi (WEF, 2025)

mazkur mexanizmni miqdoriy ko'rsatkichlar orqali tasdiqlaydi: 2030-yilga borib butun dunyo bo'ylab asosan ma'lumotlarni qayta ishlash, kotiblik hamda hisobotlarni shakllantirish kabi sohalarda jami 92 million ish o'zni qisqarishi prognoz qilinmoqda. O'zbekistonda ham bu tendentsiya bevosita kuzatilmoqda: hukumatimiz 2025-yilga qadar davlat sektorida 2141 ta ma'muriy lavozimni qisqartirishi rejalashtirilgan bo'lib, ularning katta qismi Soliq qo'mitasi, Suv xo'jaligi vazirligi va Qishloq xo'jaligi vazirligida jamlangan (Khusainov va Ibragimova, 2026). Ushbu ko'rsatkichlar global kutuvlarning O'zbekiston sharoitida ham o'z tasdig'ini topayotganini isbotlovchi eng kuchli empirik dalil bo'lib, Khusainov va Ibragimova (2026) o'z tadqiqotlarida ushbu bog'liqlikni to'g'ridan to'g'ri Jahon Iqtisodiyot Forumi (WEF, 2025) qayd etgan tendentsiyalari bilan uzviy bog'laydi. Bu esa o'z navbatida, ikkita mutlaqo mustaqil manba aynan bir xil xulosaga kelganini anglatadi.

Ikkinchi tendentsiya esa yuqori malakali ish o'rinlariga talab o'sishi bo'yicha hisoblanadi. Raqamlashtirish jarayonlari o'z-o'zidan yangi infratuzilmani shakllantirish va uni boshqarishga qodir bo'lgan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Jahon Iqtisodiyot Forumining (WEF, 2025) ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga qadar sun'iy intellekt (AI) hamda katta ma'lumotlar (big data) bo'yicha mutaxassislarning eng jadal o'sib borayotgan kasblar reytingida yetakchilik qiladi. O'zbekistonda bu tendentsiya allaqachon namoyon bo'lgan bo'lib: 2024-yil holatiga ko'ra Sun'iy Intellekt sohasida 500 dan ortiq, Bulutli Hisoblash (Cloud Computing) sohasida esa 300 dan ortiq bo'sh ish o'ri mavjud. Bulutli arxitektorning (Cloud

architect) oylik maoshi esa 20-50 million so'mga yetmoqda (Khusainov va Ibragimova, 2026). Hukumatimizning "1 million AI mutaxassisi" dasturi tashabbuslari va IT Park uchun belgilangan imtiyozli rejimni 2040-yilga qadar uzaytirishi aynan ushbu talabni rag'batlantirishga qaratilgan (Khaitbayeva, 2026). Bu natija Agama va Okoh (2025) tomonidan ilgari surilgan avtomatlashtirishning "Ikki yoqlama ta'siri" konsepsiyasini bevosita tasdiqlaydi ya'ni an'anaviy ish o'rinlarining qisqarishi va yangi texnologik kasblarning yaratilishi parallel ravishda sodir bo'lmoqda.

Uchinchi tendentsiya bu – raqamli tengsizlikdir. Avtomatlashtirish natijasida daromadlarning kapital egalari foydasiga taqsimlanishi hamda ta'lim va texnologiyalardan foydalanish imkoniyati cheklangan aholi qatlamlarining ortda qolishi kabi sabab-oqibat zanjiri "Mind the AI Divide, 2024" hisobotida global miqyosda hujjatlashtirilgan. Shuni ham aytish joizki, mazkur manbada 118 ta rivojlanayotgan mamlakat sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro muhokamalarda ishtirok etmayotgani, bu holat esa ularning manfaatlari global qarorlar qabul qilish jarayonidan chetda qolib ketishiga olib kelayotgani ta'kidlanadi. O'zbekiston misolida ushbu tendentsiya shahar va qishloq sharoitidagi katta farqlarda aniq ko'zga tashlanadi. Xususan, hududlarda internet qamrovi 66 foiz atrofida cheklangani, oliy ta'lim tizimida STEM yo'nalishi bitiruvchilari ulushi 23 foizni tashkil etishi hamda mahalliy korxonalarning 65 foizi malakali IT mutaxassislarni topishda qiyinchiliklarga duch kelayotgani buning amaliy isbotidir (Khaitbayeva, 2026). Shuningdek Rozimurodova va Rasulov (2025) qishloq yoshlarining zamonaviy raqamli ta'lim

kurslari hamda startap inkubatorlar muhitidan chetda qolib ketayotgani kelgusida bu tafovutni yanada chuqurlashtirishi mumkinligidan ogohlantiradi. Shu tarzda ushbu natija Mind the AI Divide (2024) ning asosiy tezisini mahalliy empirik ma'lumotlar orqali mustahkamlaydi.

Yuqoridagi qayd etilgan uchinchi tendentsiyaga o'ziga xos istisno sifatida Flores (2022) tomonidan ilgari surilgan "Robotlar samaradorligi paradoksi"ga alohida e'tiborni qaratish lozim. Braziliya

misolida mehnat unumdorligi robot texnologiyasi joriy etilgandan besh yil o'tib o'sishni boshlagan. O'zbekistonda tashkiliy kapital qayta shakllanishi jarayoni hali to'liq boshlanmagan. Bu paradoksning O'zbekiston sharoitida ham namoyon bo'lishi mumkinligi kelajak tadqiqotlar uchun muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Quyidagi jadval har uchala tendentsiya bo'yicha o'tkazilgan qiyosiy tahlil natijalarini ixcham shaklda aks ettiradi:

Mezon	Global tendentsiya	O'zbekiston holati	Moslik
O'rta malakali ish o'rinlari	Kamaymoqda (WEF, 2025)	2141 ta lavozim qisqartiriladi (Khusainov va Ibragimova, 2026)	Tasdiqlangan
Yuqori malakali talab	O'smoqda (WEF, 2025)	AI va Cloud bo'sh lavozimlar o'smoqda	Tasdiqlangan
Raqamli tengsizlik	Kuchaymoqda (Mind the AI Divide, 2024)	Shahar va qishloq tafovuti kuchaymoqda	Tasdiqlangan
Unumdorlik paradoksi	5 yillik kechikish (Flores, 2022)	Hali o'lchanmagan	Tasdiqlash mumkin emas

O'tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston mehnat bozori global tendentsiyalardan tubdan farq qilmaydi. Xususan, mehnat bozoridagi qutblanish ya'ni polyarizatsiya, yuqori malakali kadrlar taqchilligi hamda hududiy raqamli tengsizlik kabi har uchala umumjahon tendentsiyasi mamlakatimiz sharoitida ham o'zining to'liq tasdig'ini topdi. Biroq transformatsiya jarayonlarining jadalligi hamda tashkilotlarning bunga tayyorgarlik darajasi jihatdan O'zbekiston hali o'tish ya'ni tranzit bosqichida bo'lib, bu holat ham xavf, ham imkoniyat sifatida talqin qilinishi mumkin.

Xulosa: Taqqoslama tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mehnat bozorida kuzatilyotgan uchta asosiy o'zgarish: o'rta

malakali ish o'rinlarining qisqarishi, yuqori malakali kadrlarga talabning ortishi va raqamli tengsizlikning kuchayishi – global tendentsiyalar bilan to'liq mos tushadi. Bu O'zbekistondagi o'zgarishlarni dunyo miqyosidagi keng jarayonning bir qismi sifatida baholash kerakligini tasdiqlaydi. Biroq Flores (2022) tomonidan aniqlangan "Robotlar samaradorligi paradoksi" O'zbekiston iqtisodiyoti uchun dolzarb ogohlantirish bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatda tashkiliy kapitalning qayta shakllanishi jarayonlari hali to'laqonli boshlanmaganligini inobatga olsak, qisqa muddatli istiqbolda mehnat unumdorligining keskin o'sishi emas, balki ma'lum darajada sekinlashuvini kutish realistikroq. Raqamli tengsizlik masalasi esa eng ustuvor muammo maqomini saqlab

qolmoqda. Ta'lim tizimidagi islohotlar va raqamli infratuzilmaga bir vaqtning o'zida sarmoya kiritilmas ekan, avtomatlashtirishning foydalari faqat shahar va yuqori malakali aholi qatlamiga to'g'ri kelib qolaveradi. Tadqiqot xulosalariga tayangan holda uchta asosiy yo'nalish bo'yicha quyidagilar tavsiya etiladi. Birinchidan, hukumat qisqartirilgan xodimlarni qayta kasbga yo'naltirishi va hududlarda raqamli

markazlarni ko'paytirilishi kerak. Ikkinchidan, ta'lim muassasalari AI va raqamli savodxonlik darslarini majburiy o'quv dasturining bir qismiga aylantirishlari lozim. Uchinchidan, xususiy biznes vakillari AI-HRM tizimlarini mahalliy sharoitlarga moslab ishlatishlari kutiladi. Kelgusidagi tadqiqotlarda olingan xulosalarni uzoq muddatli kuzatuvlar va chuqur statistik tahlillar yordamida amalda tasdiqlash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati:

- Agama, O., & Okoh, O. F. (2025). Examining the economic implication of automation on labor markets in developing countries. *Socio Economy and Policy Studies*, 5(2), 49-56.
- International Labour Organization. (2025). Artificial intelligence adoption and its impact on jobs. G20 Framework Working Group Technical Paper. ILO.
- Flores, R. R. (2022). Automation and labor markets in developing counties (Doctoral dissertation, Georgetown University).
- Khaitbaeva, L., Sofia, A., & Bekimbetova, G. (2026). The impact of artificial intelligence on the economy and its future prospects: A case study of Uzbekistan. *ICEBEF Proceedings*, Vol. 4
- Khusainov, R. R., & Ibragimova, S. A. (2026). The impact of automation and artificial intelligence on the structure of employment in Uzbekistan. *Latin American Journal of Education*, 6(2), 91-104. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18601364>
- Millington, K. A. (2017). How changes in technology and automation will affect the labour market in Africa. K4D Helpdesk Report. Institute of Development Studies, Brighton, UK.
- Qalandarovna, A. G., & Xaydarova, M. (2026). Prospects for managing human resources through artificial intelligence: An applied scientific approach based on the case of Uzbekistan. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 7(1), 94-98.
- Rozimurodova, D., & Rasulov, R. O. (2025). Artificial intelligence and the labor market: Opportunities and risks (the case of Uzbekistan). *Journal of Multidisciplinary Science and Innovations*, 1279-1281.
- United Nations & International Labour Organization. (2024). Mind the AI Divide: Shaping a global perspective on the future of work. UN Office of the Secretary-General's Envoy on Technology; ILO. <https://doi.org/10.18356/9789211066524>
- World Economic Forum. (2025). The future of jobs report 2025. WEF Centre for the New Economy and Society. <https://www.weforum.org/publications/the-future-of-jobs-report-2025/>